

Toshkent-Myunxen-Toshkent aviaqatnovlariga 20% chegirma taqdim etamiz



Aksiyasining batafsil shartlari:

1. Aviachipta sotuv muddati 2023-yil 12-dekabr 2024-yil 29-fevralgacha;
2. Parvoz qilish muddati 2023-yil 15-dekabrdan 2024-yil 29-fevralgacha;
3. Taqdim etiladigan chegirma miqdori:
 - kattalar uchun tarifdan – 20%;
 - 2 yoshgacha va 2 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan salonda joy egallovchi bolalar uchun – bolalar tarifiga mos ravishda – 20%;
 - chegirma salonda joy egallamaydigan va 2 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun amal qilmaydi;
4. Aviachipta qaytarilganda/qayta bronlashtirilganda/qayta rasmiylashtirilganda tarifga taqdim etilgan chegirma aviachiptani qaytarish/qayta bronlashtirish/NO-SHOW uchun undiriladigan yig'imlarga nisbatan qo'llanilmaydi. Bolalar uchun belgilangan tartibda (25% chegirma bilan) undiriladi;
5. Chegirma bilan chiqarilgan to'liq foydalanilmagan aviachiptalar qayta rasmiylashtirilgan/qayta bron qilingan taqdirda, chegirmalarni qo'llamasdan to'liq tarif darajasiga ko'tarilishi kerak.
6. 2023-yil 15-dekabrdan 2024-yil 29-fevralgacha ilgari sotib olingan aviachiptalar qayta rasmiylashtirilsa yoki qayta bron qilinsa, tarifga chegirma qo'llanilmaydi;
7. Chegirma bilan qisman foydalanilgan aviachiptalar qayta rasmiylashtirilgan/qayta bron qilingan taqdirda, qayta hisob-kitob aviachipta chiqarilgan sanada (ya'ni chegirma qo'llanilgan holda) amalga oshiriladi;
8. Chegirma faqat aksiya davriga to'g'ri keladigan davr uchun qo'llaniladi;
9. Chegirmalarni birlashtirish taqiqlanadi, bolalarnikidan tashqari;
10. Chegirma Toshkent-Myunxen-Toshkent aviaqatnovida e'lon qilingan barcha individual ekonom va biznes-klass tariflari uchun (bir tomon va borish-qaytish uchun) amal qiladi.